



DAVLAT MEXANIZMI TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISH PRINSIPLARI

Ashuroxunova Iroda Tohir qizi

Guliston davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada davlat mexanizmi tushunchasining mazmun-mohiyati, uni tashkil etish prinsiplari, xususan, hokimiyatlarning bo'linish prinsipi, mazkur tushunchaning tarixiy shakllanish jarayoni, bu borada milliy hamda xorijiy olimlarning ilgari surgan nazariy tahlillari haqida atroflicha fikr-mulohaza bildiriladi.

Kalit so'zlar: davlat, davlat mexanizmi, davlat apparati, davlat funksiyasi,

Davlat hokimiyatini amalga oshirish masalasi barcha zamonlarda dolzarb bo'lgan va hozir ham shunday. Davlatning institutsiyaviy elementi – davlat hokimiyatining uyushtirilishi, tashkillashtirilganligi, ya'ni tashkilot sifatida rasmiylashtirilganligidir. Davlatni tashkilot sifatida turli nuqtayi nazardan talqin etish mumkin. Teran ma'noda, davlat – bu mamlakatning butun aholisini qamrab oladigan iyerarxik (pog'onama-pog'ona uyushgan) tashkilot bo'lib, bunda aholi davlatning boshlang'ich elementi hisoblanadi. Aholining bu uyushmasi – tashkilotida, bir tomonda – «boshqariluvchi fuqarolar» bor, ikkinchi tomonda – butun davlat tashkilotini boshqaruvchi apparat mavjud.[1]

Davlat va huquq nazariyasi faniga oid ayrim adabiyotlarda «davlat mexanizmi» va «davlat apparati» sinonim tushunchalar sifatida ko'rsatib o'tiladi. Ayni paytda davlat mexanizmi davlat apparatiga nisbatan ancha keng va murakkab. U davlat apparati va tashkilotlari tizimidan iborat bo'lib, ular vositasida davlat hokimiyati amalga oshiriladi va jamiyat ustidan davlatning rahbarligi ta'minlanadi.

Davlat mexanizmi (apparati) da jamiyat oldidagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalardagi vazifa va funksiyalarni bajarish maqsadida, bir qancha davlat organlari iyerarxiya asosida, yagona bir tizimga birlashadi. Shuningdek, u o'z funksiyalarini bajarib, davlat hokimiyatini amalga oshiradi. Davlat mexanizmini tashkil etish muayyan obyektiv prinsiplarga tayanadi. Bu esa, jamiyatning davlat tomonidan samarali idora etilishini ta'minlaydi. Har qanday holatda ham davlat mexanizmi barcha tarkibiy qismlarining faoliyati uning o'z oldiga qo'ygan maqsad, vazifalari va funksiyalarini amalga oshirishga



qaratilgandir. Davlat mexanizmi turli tuzilmalardan iborat bo‘lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin: - davlat apparati; - davlat tashkilotlari (davlat korxonasi va muassasalari); Davlat mexanizmining belgilari: - o‘zaro bog‘liq va iyerarxik jihatdan bir-biriga bo‘ysunuvchi davlat organlari va tashkilotlari (davlat korxonasi va muassasalari) tizimidan iborat; - davlatning o‘z oldiga qo‘ygan maqsad- va vazifalarini hamda funksiyalarini amalga oshirish uchun tashkiliy, moliyaviy va boshqa vositalar bilan ta‘minlanganligi; - har bir davlat organi, tashkiloti vakolatlari va faoliyat doirasining muayyan huquqiy asoslarga ega ekanligi va boshqalar.

Xorijiy mamlakatlarning konstitutsiyalarida, odatda, davlatning normativ tavsifi, hokimiyat va davlat idoralari ko‘rinishlarining izohi bayon etiladi. Bu qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati, prezidentlik instituti, markaziy va mahalliy hokimiyat idoralari tizimidan iborat. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga binoan ham qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati – davlatning uchta asosiy tayanchidir.[2]

Hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi - bu davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tarmoqlariga taqsimlanishidir. Davlat hokimiyati vakolatlarning taqsimlanishi (mohiyati) - bu hokimiyat har uchala tarmog‘ining muvozanatini, tengligini hamda ularning o‘zaro bir-birini tiyib turishini va qarama-qarshi ta‘sir etishini ta‘minlovchi tizimdir. Ayni paytda ushbu organlar vakolatlari shundayki, ular bir-biridan xoli harakat qila olmaydi va davlat hokimiyati uch mustaqil tarmoq kooperatsiyasi jarayonida amalga oshiriladi. Hokimiyat vakolatlari taqsimlanishi prinsipi mazmunini tavsiflovchi quyidagi jihatlarni ko‘rsatib o‘tish mumkin;

- demokratik davlatlarda hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlari o‘zaro yagona davlat mexanizmi bilan chambarchas bog‘lanibgina qolmay, balki ular nisbatan mustaqil hamdir;

- qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud funksiyalarini amalga oshiruvchi davlat organlari o‘rtasida hokimiyatlarning muayyan nisbati mavjud bo‘ladi hamda cheklovlar va muvozanat tizimi amal qiladi.[3]

Davlatning jamiyat hayotining asosiy sohalariga, fuqarolar va ijtimoiy guruhlar faoliyatiga ko‘rsatadigan ta‘siri maqsadli va samarali bo‘lishi lozim. Ushbu maqsadga ishchan, izchil, «qobiliyatli» davlat apparati vositasida erishiladi. Davlat ishlarini



boshqarish davlat apparati tarkibida yuqori uyushqoqlikni, vakolatlar doirasida omilkor harakatni, mahorat va professionalizmni talab etadi.

Hokimiyat vakolatlari taqsimlanishi prinsipi davlat va huquq nazariyasining asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, unga ko'ra yagona davlat hokimiyati mustaqil va bir-biriga bo'ysunmaydigan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linadi (ular bilan bir qatorda ba'zan ta'sis etuvchi, saylovchi va nazorat hokimiyati ham ajratiladi). Ushbu prinsipning vazifasi davlat hokimiyati to'laligicha bir shaxs yoki organ qo'lida jamlanishiga yo'l qoymaslikdan iborat. Zero, hokimiyatning to'liq bir shaxs yoki organ qo'lida jamlanishi demokratiya va inson huquq hamda erkinliklariga bevosita xavf tug'diradi, avtoritar tuzum o'rnatilishiga olib keladi.

Hozirgi kunda davlatshunos olimlar davlat apparatining, eng avvalo, fuqarolar va ular uyushmalarining turli ehtiyoj va manfaatlarini mutanosiblashtirish mexanizmi deb hisoblaydilar. Bunday fikrning to'g'riligi davlat mexanizmining o'ziga xos umumiy belgilarini tahlil etish jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Davlat mexanizmi – davlat organlari va muassasalarining yaxlit iyerarxik tizmidir. Uning yaxlitligi avvalo, davlat hokimiyati va uning irodasi yagonaligi bilan, davlat organlari va muassasalari faoliyati tamoyillari, vazifalari va maqsadlarining yagonaligi bilan ta'minlanadi. Davlat organlari o'zaro farq qilishiga qaramay, bir butunning qismlari hisoblanadi va o'zaro chambarchas bog'liq. Masalan, parlament va hukumat turli vakolatlarga ega, har xil mazmundagi ishlarni bajaradi, lekin har ikkisi ham birgalikda yagona davlat hokimiyatini amalga oshiradi, ya'ni ikkalasining faoliyati ham fuqarolarning munosib hayot kechirishi uchun shartsharoit yaratib berishdan iborat. Ular bir-biri bilan o'zaro bog'liq va aloqadorlikda faoliyat yuritadi.

Hokimiyat vakolatlarini taqsimlash nazariyasi fransuz mutafakkiri Sh.L. Monteskening «Qonunlar ruhi haqida» asarida bayon etilgan. Uning fikricha, adolatli qurilgan davlatda hokimiyat yagona emas, balki aksincha bir-biriga tobe bo'lmagan uchta hokimiyat: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati mavjud bo'lishi shart. Ularning har qanday ko'rinishda biron-bir organ yoki shaxs qo'lida mujassamlanishi umumiy manfaatlarga putur yetkazadi, suiiste'molliklarga olib keladi va shaxsning siyosiy erkinligi bilan aslo kelishmaydi.



Barcha davlat organlari umumiy maqsad va vazifalarni bajaradi, ya'ni davlat funksiyasini amalga oshirish uchun yagona tizimga birlashadi. Asosiy maqsad – jamiyat va xalq manfaatini qondirish. Demokratiya sharoitida davlat va davlat organlari xalq irodasini ifoda etadi, uning manfaatlari uchun xizmat qiladi. Asosiy qonunimizda belgilanganidek, davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar. Konstitutsiyaning 7-moddasida belgilab qo'yilganidek, «O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi».

Davlat mexanizmi (apparati) piramida shaklida tuzilgan bo'lib, unda yuqori turuvchi organlar quyi turuvchi organlarga nisbatan ko'proq huquqiy vakolatlarga ega bo'ladi va ularning faoliyatiga ta'sir ko'rsata oladi, quyi turuvchi organlar esa, yuqori turuvchi organlarning qarorlarini bajarishga majburdirlar. Masalan, Vazirlar Mahkamasining qarorini vazirliklar va davlat qo'mitalari, joylardagi mahalliy organlar, hokimliklar bajarishi majburiy hisoblanadi.

Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning bir qo'lda birlashtirilishi qonunning ustun bo'lishiga zarar yetkazadi, agar, sudyalari faqat sudlov bilan mashg'ul bo'lmay, qonun yaratish ishi bilan shug'ullansa, u holda insonlar hayoti nohaqlik qurboniga aylanishi mumkin.[4] Hokimiyat vakolatlari taqsimlanishi prinsipi ilk bor 1787-yilgi AQSH Konstitutsiyasida o'z ifodasini topgan. Ushbu prinsipga ko'ra hokimiyat vakolatlari nafaqat uning turli tarmoqlari o'rtasida taqsimlanadi, balki «o'zaro muvozanat va cheklovlar tizimi» orqali ular bir-birini nazorat qiladi. Hokimiyat vakolatlari taqsimlanishi tamoyili O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida konstitutsiyaviy tuzumning asoslaridan biri sifatida mustahkamlab qo'yilgan. Unga ko'ra «O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi».

Davlat organlari, xususan, qonun chiqaruvchi organ qonun qabul qilish va uni kuchga kiritish usuli bilan, ijro etuvchi organlar boshqaruv, majburlov va rag'batlantirish usullari bilan, sudlar, prokuratura va huquqni muhofaza etuvchi organlar majburlov va ishontirish usuli bilan huquqiy normalarni tatbiq etadilar. Huquqni muhofaza qilish organlari huquq



normalarini amaliyotga joriy etishda asosan ishonirish va majburlash usullaridan foydalangan holda ish yuritadilar. Taassufki, jamiyatdagi barcha fuqarolar ham davlat tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlardagi qoidalarga soʻzsiz rioya qilavermaydilar, chunki insonlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati bir xilda shakllanmaydi. Shu bois, fuqarolar davlat tomonidan oʻrnatilgan qoidalarga oʻz xohishlariga koʻra rioya etmaydigan boʻlsa, davlat oʻzining majburlov kuchi orqali qonunlarning bajarilishini taʼminlaydi. Bular: prokuratura, ichki ishlar organlari, bojxona, milliy xavfsizlik xizmati, jinoiy jazoni ijro etish muassasalari, moliya organlari, armiya va boshqalar. Hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishi prinsipini Oʻzbekiston Respublikasida joriy qilishdan maqsad mamlakatda demokratiyalashtirish jarayonini tezlashtirish, davlat mexanizmini takomillashtirish, umuminsoniy qadriyatlarni qayta tiklash, inson huquqlari va erkinlarining ustuvorligini tan olish va pirovardida huquqiy davlat barpo etishdir. Hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishi prinsipi hokimiyatning suiisteʼmol qilinishidan, byurokratizmdan va siyosiy hayotdagi bosh-boshdoqlikdan qutilish, hokimiyat organlarining muvozanati va tengligini taʼminlash, ularning oʻzaro munosabatlarini tartibga solish imkoniyatini beradi.

Davlat mexanizmi(apparati)ning tashkil etilishi va faoliyat yuritishi muayyan rahbariy gʻoyalar, qoidalar, yaʼni prinsiplar asosida amalga oshiriladi. Davlat mexanizmining prinsiplari ularning toʻgʻri faoliyat yuritishida yoʻllanma beruvchi vazifani oʻtaydi. Shuningdek, mazkur prinsiplar davlat apparatining harakat doirasi va mezonini belgilab beradi.

Davlat mexanizmi (apparati)ning tashkil etilishi saylanish va tayinlanish orqali amalga oshiriladi. Oʻzbekiston Respublikasida oliy vakillik organlari Qonunchilik palatasi deputatlarining barchasi, Senat aʼzolarining aksariyat qismi, Oliy sud organlarining rais va oʻrinbosarlari saylash orqali tegishli vakolatga ega boʻladilar. Ijro etuvchi organlarning barchasi tayinlash tartibida shakllantiriladi. Masalan, Oʻzbekiston Respublikasining Prezidenti vazirlar va hokimlarni lavozimiga tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi.

Davlat mexanizmi (apparati)ga kiruvchi organlar yuqorida qayd etib oʻtilgan prinsiplar asosida tashkil etiladi hamda ular oʻz faoliyatini mazkur prinsiplar asosida amalga oshiradilar.



Davlat mexanizmi bilan davlat funksiyalarining uzviy aloqadorligi davlat mexanizmi (apparati) ni tarkibiy-funksional tahlil etish imkonini beradi. Tarkibiy funksional yondashuv umumiy tizimli tahlil uslubining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, davlatning tarkibi va funksiyalarini uzviy bog‘liqlikda o‘rganishga ko‘maklashadi. Shunga ko‘ra, davlat mexanizmining tuzilishi u bajaradigan vazifa va funksiyalar samaradorligi nuqtayi nazaridan baholanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipining mohiyati hokimiyat vakolatlarini namoyon etuvchi davlat organlari o‘rtasida o‘zaro muvozanatni va ularning o‘zaro bir-birini tiyib turish tizimini ta‘minlashdan iborat. bo‘lib, bunda davlat hokimiyati tarmoqlari o‘rtasida Konstitutsiya va qonunlar bilan belgilangan demokratik muvozanat (balans) ta‘minlanishi nazarda tutiladi. Basharti, shunday muvozanat va hamkorlik ta‘minlanmasa, har qaysi hokimiyat tarmog‘i, bu qonunchilik, ijro va sud hokimiyati tuzilmasi bo‘ladimi, tabiiy, ular o‘zlariga yuklatilgan vakolat va vazifalarni to‘la-to‘kis ado etish imkoniga ega bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1. X.T.Odilqoriyev. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. Toshkent. "Adolat". 2018.**
- 2. Sh.A.Saydullayev. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. kkinchi nashr. Toshkent. "Yuridik adabiyotlar publish". 2021.**
- 3. Ahmedshayeva M. Davlat mexanizmi va hokimiyatlar bo'linishi. O'quv qo'llanma. -T.: TDYI.2005.**
- 4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023.30.04.**